# QAZIB OLISH USULIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIYAVIY SOG‘LOMLASHTIRISH YO‘LLARI

**Abduraxmanov Davron Burxanjonovich**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri
ORCID iD: 0009-0006-5489-7716
***https://doi.org/10.5281/zenodo.15269797***

***Anotatsiya.*** *Mazkur maqolada “O‘zbekko‘mir” AJ tarixi haqida qisqacha ma’lumot berilib, ko‘mir sanoati korxonalarini moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish yo‘llari, birlamchi tahlil qilingan. Ko‘mir sanoatining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlaridan iqtiboslar keltirilib, muammoning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan.*

***Анотация.*** *В статье дан первичный анализ методы улучшения финансового состояния предприятий уголной отрасли на примере АО «Узбекугол». Намечены перспективные направления развития уголной промышленности, приведены цитаты из мнений зарубежных и отечественных ученых, изучены теоретические и практические аспекты проблемы.*

***Annotation.*** *This article provides a primary analysis of the ways of financial rehabilitation of coal industry enterprises using the example of JSC "Uzbekcoal". Promising development directions of the coal industry are indicated, as well as quotes from the opinions of foreign and domestic scientists, and theoretical and practical aspects of the problem are studied.*

***Kalit so‘zlar:*** *“O‘zbekko‘mir”AJ, moliyaviy sog‘lomlashtirish, ehtiyot qismlarni mahalliylashtirish, samarador innovatsion texnologiyalar, ko‘mir ustgi qatlami, geologik resurslar, transformatsiyalash.*

***Ключевые слова:*** *АО «Узбекугол», финансовая оздоровления, локализация запасчастей, эффективные инновационные технологии, вскрышной част уголные пласты, геологические ресурсы, трансформация.*

***Keywords:*** *JSC "Uzbekcoal", financial rehabilitation, localization of spare parts, effective innovative technologies, coal overburden, geological resources, transformation.*

**Kirish:**

Asrlar davomida ko‘mir mahsulotiga butun dunyo miqyosida sanoat inqilobining, asosiy harakatlantiruvchi drayveri sifatida qaralgan.

Yer sayyorasidagi ekologik tanazzul vujudga kelishi tufayli, rivojlangan mamlakatlar “yashil” texnologiyalarga asoslangan qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bosqichma-bosqich o‘tish harakatiga tushgan bo‘lsada, ko‘mir yoqilg‘isining jahon taraqqiyotidagi tutgan muhim o‘rni saqlanib qolayotganini kuzatish mumkin.

Shu o‘rinda dunyoning bugungi beqaror geosiyosiy imidji, ko‘mir yoqilg‘isini energetika sanoatidagi eng xavfsiz va ishonchli mahsulot sifatida ko‘rsatib berayotganini eslab o‘tish o‘rinli hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham ko‘mir mahsuloti asosan elektr energiyasini ishlab chiqarishda, issiqxona mahsulotlarini yetishtirishda, pishiq g‘isht fabrikalari faoliyatini ajralmas bo‘g‘ini sifatida, hamda, tabiy gaz yetib bormagan hududlarda, ijtimoiy obyektlar va xonadonlarni isitishda asosiy yoqilg‘i sifatida keng foydalaniladigan qazilmaresurus hisoblanadi.

O‘zbekiston ko‘mir sanoati qariyb 77 yillik tarixga ega. O‘rta Osiyodagi eng yirik hisoblangan Angren konidan ilk bor 1948-yilda foydalanish boshlangan. Bugungi kunga qadar muxim rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan “O‘zbekko‘mir”Aksiyadorlik jamiyati, 11 ta filialni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda qazib olinadigan ko‘mirning 85% ni tashkil etuvchi Angren ko‘mir xavzasi, Apartak ochiq koni, yer osti usulida ko‘mir qazib olish filiali va ko‘mir qazib olish jarayonida muhim bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatuvchi 8 ta ixtisoslashgan korxonalar, shular jumlasidandir.

Yuqorida ta’kidlanganidek ko‘mir sanoati butun jahonda bo‘lgani kabi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri, mamlakatning energetik mustaqilligi va sanoat rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘g‘inidir.

Biroq, bugun ko‘mir sanoati korxonalari moliyaviy barqarorlikka erishishda bir qator muammolarga duch kelayotgani sir emas. Ko‘mir sanoati faoliyatini moliyaviy sog‘lomlashtirish uchun resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va asosiy etiborni faqatgina qazib olinayotgan ko‘mir mahsulotiga qartibgina qolmasdan, parallel ravishda yangi daromad manbalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Mazkur maqolada “O‘zbekko‘mir” AJ misolida ko‘mir sanoati korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘llari birlamchi tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Ko‘mir sanoatini moliyaviy sog‘lomlashtirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy, iqtisodiy va amaliy tadqiqotlar turli adabiyotlarda yoritilgan. Ushbu bo‘limda mavzuga oid muhim adabiyotlar tahlil qilinadi.

Shodmonov Sh.Sh. va Abduqodirov A.A.ning “Investitsiyalar va moliyaviy menejment” (2020) asarida investitsiya loyihalarining sanoat tarmoqlaridagi o‘rni, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash usullari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari yoritilgan. Ushbu manbada keltirilgan tamoyillar ko‘mir sanoati korxonalarini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

To‘rayev U.ning “O‘zbekiston ko‘mir sanoatini rivojlantirish istiqbollari” (2022) nomli maqolasida mamlakatimizdagi ko‘mir sanoatining bugungi holati va uning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ko‘mir qazib olish hajmini oshirish, energiya samaradorligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhimligi qayd etilgan. Mazkur maqolada ko‘mir sanoati korxonalarining moliyaviy sog‘lomlashtirilishi uchun taklif qilingan strategik yo‘nalishlar maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘mir sanoatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 5-martdagi PQ-1234-sonli qarorida mamlakatimizda ko‘mir sanoatini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat investitsiyalari va moliyaviy imtiyozlar bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu qaror ko‘mir sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda davlat tomonidan qo‘llanilayotgan mexanizmlarni o‘rganish uchun asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Xudoyberdiyev A.ning “Ko‘mir sanoatida innovatsion texnologiyalarning o‘rni” (2021) maqolasida yangi innovatsion texnologiyalarning ko‘mir qazib olish jarayoniga

integratsiyalashuvi va uning iqtisodiy samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqola muallifi texnologik modernizatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatib, raqamlashtirish va energiya samarador texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar maqola mavzusini chuqur yoritishda, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning har biri maqolaning turli jihatlarini to'ldirib, moliyaviy sog'lomlashtirish, innovatsion texnologiyalar va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalarini har tomonlama ochib beradi.

**Taqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda qazib olish usulida mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini, xususan **"O'zbekko'mir" AJ** misolida moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy usullar va yondashuvlarga asoslangan: Nazariy tahlil usuli, ekspert baholash usuli, empirik tadqiqot usuli, taqqoslash va diagnostika usuli va innovatsion yondashuv

**Taxlil va natijalar**

Ko'mir sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishda quyidagi dolzarb masalalar ustida o'rganish olib borish lozim.

1. Ko'mir sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishda bosh konsepsiyani ishlab chiqish.
2. Ko'mir ustki qatlamlaridagi geologik resurslardan ilmiy yondashuv asosida, innovatsion yechimlarni qo'llash orqali maksimal foyda olish choralarini ko'rish.
3. Ishlab chiqarish jarayonida muhim sanalib, Sotib olish majburiyatini vujudga keltirayotgan ehtiyot qismlarni mahalliylashtirish va bu borada jamiyat tasarrufidagi quvvatlardan maksimal foydalanish.
4. Energiya samarador texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilib borish va qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish (mini IES qurish) orqali elektr enegiyasi mustaqilligiga erishish.
5. Kadrlar salohiyatini oshirish, takroriy funksional yondashuvlarni transformatsiyalash va zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan istiqbolli kadrlarni jalb qilish mexanizimini joriy etish.

1. **Ko'mir sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishda bosh kansepsiyani ishlab chiqish.**

Ilmiy yondashuvlar asosida, mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda, "O'zbekko'mir"AJni moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishda uzoqni ko'zlab korxona istiqbolli bosh kansepsiyani ishlab chiqib, sanoat faoliyatiga joriy qilinsa, korxona uzoq yillik rejaga asosan odimlay boshlaydi.

Bazi hollarda boshqaruvning o'zgarishi va har gal tizimga yangi rahbariyat kelishi korxona tarixida turli iz qoldirishini kuzatganmiz. Aniq, konkret tizim mavjud bo'lmasa inson omili, goh korxonani rivojlantiradi, goh buning aksi bo'lib hizmat qiladi, chunki yangi raxbariyat oldida eng avvalo o'zining ishchi rejasi (Yo'l xarita)ni ishlab chiqib joriy etish vazifasi turadi.

Avvalgi raxbariyat ham xuddi shunday amaliyotni qo'llab, yo'l xaritasi loyihalarini bir necha milliyardlarga moliyalashirgan bo'lishi va bu mablag'lar qandaydir subsidiyalar qo'llash yo'li bilan emas balki, korxonaning ishlab topgan mablag'lari hisobidan amalga oishrilgan bo'lishiga duch kelamiz. Istiqbolli rivojlanish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishida korxonaning, yuqori instansiya, moliyaviy institutlar va ilmiy kengash taxlilidan o'tib tasdiqlangan bosh konsepsiyasi mavjud bo'lsa unda, xar qanday yangi rahbariyatning oldida tizim

yaratish emas, balki tizmni rivojlantirish vazifasi turadi. Bu o‘rinda boshqaruvchining zamonaviy kompetensiyalardan qanchalik bohabar ekanligi alohida o‘rin kasb etadi.

**2. Ko‘mir ustki qatlamlaridagi geologik resurslardan ilmiy yondashuv asosida, innovatsion yechimlarni qo‘llash orqali maksimal foyda olish choralarini ko‘rish.**

Ko‘mir konlarining ustki qatlamlarida bir qator qimmatli geologik resurslar mavjud. Ulardan samarali foydalanish orqali korxona qo‘shimcha daromad olishi mumkin. Jumladan, **Qurilish materiallari**: sement, qum, tosh, shag‘al, Ohaktoshni qurilish va sanoatda samarali qo‘llash, qayta ishlash orqali undan sement va qurilish uchun zarur moddalarni olish, bu esa ichki bozorda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Geologik resurslarni to‘liq o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish pirovardida qo‘shimcha daromadga kirish imkoniyati yaratiladi.

**Kaolin qazilmasi**: kafel, sopol buyumlari xomashyosi, alyumini moddasi va g‘isht ishlab chiqarish, Yer osti drenaj suvlarini qayta ishlash – mahalliy aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash hamda suv resurslaridan samarali foydalanish va sotish qayta ishlangan suv qoldiqlaridan, texnik maqsadlarda foydalanish mumkin. Bugungi kunda bu resurslardan foydalanish past darajada bo‘lib, ular ko‘pincha chiqindi sifatida qolmoqda. Ushbu materiallarni qayta ishlash, turli tegishli soha va qurilish sanoatiga jalb etish orqali qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish hamda eksport bozorlariga chiqish imkoniyati yaratilishi mumkin bo‘ladi bu esa o‘z o‘rnida avvalo davlat, qolaversa korxonaning moliyaviy jihatdan quvvatlanishiga olib keladi .

**3. Ishlab chiqarish jarayonida muhim sanalib, sotib olish majburiyatini vujudga keltirayotgan ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish va bu borada jamiyat tasarrufidagi quvvatlardan maksimal foydalanish**.

Ko‘mir sanoatida texnologik uskunalar va ehtiyot qismlarning katta qismi import qilinadi, bu esa valyutaning mamlakatdan chiqib ketishiga olib keladi. Shu sababli, ehtiyot qismlarni mahalliy ishlab chiqarish orqali xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Buning uchun, Importga qaramlikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish jarayonida muhim sanalib, Sotib olish majburiyatini vujudga keltirayotgan ehtiyot qismlarni lokal ishlab chiqarishni tashkil etilsa qolaversa ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish bosqichiga olib o‘tilsa, korxonaning mablag‘lari tejalib qo‘shimcha iqtisod qilish imkoniyati yaratiladi. Bu borada jamiyat tasarrufida bo‘lgan “Tog‘-kon uskunalarini sozlash zavodining” quvvatlaridan to‘laqonli foydalanish o‘rinli. Mahalliy ishlab chiqaruvchi sifatida moliyaviy instrumentlar ya’ni, soliq imtiyozlaridan unumli foydalanish, shundoq ham bo‘sh turgan bino va inshootlarga faqatgina tasarruf qilinganligi uchun to‘lanayotgan qo‘shimcha soliq yuklarini kamayishiga erishish va maxalliylashtirilgan mahsulot yoki ehtiyot qisimlari turlarini ko‘paytirish orqali eksportni yo‘lga qo‘yish va pirovard maqsad tushumlar ko‘lamini kengayishi va foydaga kirish imkoniyatlarini yaratish mumkin.

4. **Energiya samarador texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilib borish va qo‘shimcha quvvatlarni ishga tushirish (kchik IES qurish) orqali elektr energiyasi mustaqilligiga erishish**.

Energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va korxonaning o‘z energiya manbalarini yaratishi moliyaviy barqarorlikni oshirishga katta hissa qo‘shibgina qolmasdan, korxonaning xarajatlarini sezilarli kamaytiradi va ekologiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan mini-Issiqlik elektr stansiyasi (TES) qurish – korxona o‘zining elektr energiyasi ehtiyojini qondiradi va davlat tarmog‘idan mustaqil bo‘lgan holda elektr energiyasi mustaqilligiga

erishishi mumkin bo‘ladi. Bunda korxona o‘z istemolidan ortgan qo‘shimcha elektr quvvatini arzonlashtirilgan tariflarda aholiga sotishi va bu orqali korxona byudjetiga qo‘shimcha pul oqimlari uchun sharoit hozirlashi mumkin bo‘ladi.

Quyosh va shamol energiyasi manbalarini joriy qilish – uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash.

Korxona hududidagi barcha yoritgichlarni fotoeffekt signal qurulmalar bilan jihozlash va kunning yorug’ paytlari ortiqcha elektr energiyasi iste’moli oldini olish, shuningdek harakat signal qurilmalari o‘rnatish orqali ortiqcha elektr iste’molini oldini olish va bu orqali mablag‘ tejash choralarini ko‘rish mumkin.

**5. Kadrlar salohiyatini oshirish, takroriy funksional yondashuvlarni transformatsiyalash va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirgan istiqbolli kadrlarni jalb qilish mexanizimini joriy etish.**

Zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirgan istiqbolli kadrlarni jalb etishda, eng avvalo xodimning nafaqat kompetentliligi shuningdek, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida a’lo darajada bajarish salohiyatiga ega bo‘lishi hamda tizimni rivojlantirish yuzasidan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tashabbuslarni muntazam kiritib borish qobiliyatiga ega ekanligiga ham alohida etibor qaratish lozim.

Buning uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish samarasi yuqori bo‘lishi mumkin.

1. Jamiyatning oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan exhiyojini qondirish maqsadida, korxona uchun optimal bo‘lgan OTMlar bilan korxona manfaatlariga maksimal xizmat qiladigan shartlar asosida, o‘zaro memorandum imzolash, konchilik va ko‘mir sanoati korxonalarida dolzarb bo‘lgan zamonaviy kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini joriy qilish.
2. Soha yo‘nalishlari bo‘yicha kadr tayyorlaydigan OTMlar huzurida mehnat yarmarkalarini muntazam tashkil eti borish, bitiruvchilar orasidan kadrlarni saralab olish bo‘yicha maxsus sinov bosqichlarini ishlab chiqish, 2.1 (mahorat va malakasini sinash bo‘yicha amaliy) sinovlar, 2.2 (murakkab test) sinovlari, 2.3 (psixologik suhbat) sinovlari.
3. Korxonada, zamonaviy malakaga ega bo‘lgan OTM bitiruvchilari samarali faoliyat yuritishlari va korxonaga sodiqlik sifatlari shakllanishi uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish va moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib (ijtimoiy paketlar) taqdim etib borish.
4. Korxona faoliyati va istiqbollari aks etgan videorliklar namoyishini, OTMlarning sohaga oid kafedralari ko‘magida muntazam tashkil etib borish (reklama).
5. Xodimning sotsial lift marshrutini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, xizmat ko‘rsatganlik yillari uchun ijtimoiy to‘lovlarni ko‘paytirish va mustahkamlash.

**Xulosa**

Moliyaviy barqarorlikka erishishdagi rejalarni ishga tushirishda va yuqorida qayd etilgan metodologiyani qo‘llashda, zamonaviy moliyaviy mexanizmlar hisoblangan instrumentlar, Lizing va kredit liniyalaridan foydalanish, kapital bozorlaridan mablag‘ jalb etish, Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy rejalashtirishni raqamlashtirish kabi amaliyotlardan foydalanish mumkin.

Bu o‘z o‘rnida korxona daromadini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shodmonov Sh.Sh., Abduqodirov A.A. Investitsiyalar va moliyaviy menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 320 b.
2. Umarov M.X. Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 250 b.
3. To‘rayev U. O‘zbekiston ko‘mir sanoatini rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2022. – №2. – B. 45–53.
4. Xudoyberdiyev A. Ko‘mir sanoatida innovatsion texnologiyalarning o‘rni // Fan va taraqqiyot. – 2021. – №4. – B. 78–85.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-1234-sonli "Ko‘mir sanoatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston sanoati – 2023-yil statistik to‘plami. Toshkent, 2023.
7. O‘zbekko‘mir AJ rasmiy sayti – www.uzbekcoal.uz